V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

**MATEMATIKA INSTITUTI,
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

TOSHKULOV XAMZA ABDUJABBOROVICH

KRITIK GAL’TON-VATSON TARMOQLANUVCHI JARAYONLARINING SHARTLI TAQSIMOTLARI ASIMPTOTIKASI

**01.01.05 – Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika
(fizika-matematika fanlari)**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

UDK: 519.21

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Toshkulov Xamza Abdujabborovich
Kritik Gal’ton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayonlarining shartli taqsimotlari asimptotikasi........ 3

Тошкулов Хамза Абдужабборович
Асимптотика условных распределений критических ветвящихся процессов Гальтона-Ватсона........ 19

Toshkulov Khamza Abdujabborovich
Asymptotics of conditional distributions of critical Galton-Watson branching processes........ 33

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works........ 37

**V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MATEMATIKA INSTITUTI,
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

TOSHKULOV XAMZA ABDUJABBOROVICH

KRITIK GAL’TON-VATSON TARMOQLANUVCHI JARAYONLARINING SHARTLI TAQSIMOTLARI ASIMPTOTIKASI

**01.01.05 – Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika
(fizika-matematika fanlari)**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida № B2023.1.PhD/FM841 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Matematika instituti va O‘zbekiston Milliy Universitetlarida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (http://kengash.mathinst.uz/) va “ZiyonNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy raxbar:	**Xusanbayev Yakubdjan Muxamadjanovich** fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Miraxmedov Sherzod Adbilovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Azimov Jahongir Bahromovich fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Etakchi tashkilot:	**Namangan muhantislik-qurilish instituti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil « 25 » iyul soat 17:30·dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (99871) 207-91-40, website: www.mathinst.uz, e-mail: kengash@mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (187-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (99871) 207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 11 » iyul kuni tarqatildi.
(2024 yil « 11 » iyuldagi 2 - raqamli reestr bayonnomasi).

U.A. Rozikov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., akademik

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

Sh.K.Formanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Tasodifiy tarmoqlanuvchi jarayonlar nazariyasi – zarrachalar populyatsiyasi evolyutsiyasi bilan bog‘liq masalalar uchun matematik model bo‘lib, tibbiyotda, kimyoda, fizikada, biologiyada, ommaviy xizmat ko‘rsatish kabi va fanning boshqa ko‘plab yo‘nalishlarida vujudga keladigan murakkab amaliy masalalarni yechishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli tasodifiy tarmoqlanuvchi jarayonlarni o‘rganish zamonaviy tasodifiy jarayonlar nazariyasidagi dolzarb va muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda tarmoqlanuvchi jarayonlar xossalarini aniqlash uchun bunday jarayonlarni taqsimotlarini va shartli taqsimotlarini bilish muxim ahamiyatga ega. Ammo bu tasimotlarni aniq formulalar orqali ifodalashning deyarli imkoniyati yo‘q. Shu sababli aytilgan taqsimotlar uchun asimptotik formulalarni aniqlash, tarmoqlanuvchi jarayonlarning shartli taqsimotlari asimptotikasini o‘rganish; ko‘p sondagi zarrachalardan boshlanuvchi tarmoqlanuvchi jarayon taqsimot funksiyasi asimptotikasini topish; bitta zarrachaning bevosita avlodlar soni cheksiz dispersiyaga ega bo‘lgan tarmoqlanuvchi jarayoni uchun limit teoremalar isbotlash tarmoqlanuvchi jarayonlar nazariyasining markaziy va dolzarb masalalaridandir.

Mamlakatimizda matematikaning fundamental va amaliy tadbiqiga ega bo‘lgan ehtimollar nazariyasi, matematik statistika va tasodifiy jarayonlar nazariyasining katta amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb yo‘nalishlariga, xususan tasodifiy tarmoqlanuvchi jarayonlar taqsimotlarining va shartli taqsimotlarining asimptotikasini o‘rganishga alohida etibor qaratildi. Buning natijasida tarmoqlanuvchi jarayonlar taqsimotlarining asimptotikasini tatqiq qilish bo‘yicha salmoqli natijalarga erishildi. “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlaridan biridir[1] Bu borada tarmoqlanuvchi jarayonlar nazariyasi sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish dolzarb va muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, 2017 yil 17 fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789-sonli, 2017 yil 20

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № PQ-4387-son qarori

apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-2909- sonli va 2019 yil 9 iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tasodifiy tarmoqlanuvchi jarayonlarni o‘rganish bo‘yicha dastlabki ishlar F.Gal’ton, U.Vatson, A.N.Kolmogorov, R.Bellman, T.Xarris, B.Sevastyanov, S.Karlin, M.Irjina, Dj.Lamperti, P.Ney, D.Kendall, N.A.Dmitrev, K.B.Athreya, F.L.Spitzers va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Tarmoqlanuvchi jarayonlar uchun limit teoremalar B.Sevastyanov, P.Ney, A.Yaglom, V.Zolotarev, Dj.Foster, V.Chistyakov, Dj.Villiamson, R.Slack, E.Seneta, A.Pakes, S.Nagaev, G.Mitov, N.Yanev, A.Zubkov, V.Vatutin hamda O‘zbekistonlik olimlar Sh.K.Formanov, A.Nagaev, R.Muxamedxanova, I.S.Badalbayev, I.Raximov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Subkritik va kritik Gal’ton-Varson tarmoqlanuvchi jarayonlar bir ehtimollik bilan so‘ngani uchun bu jarayonlarning jarayon so‘nmaganlik shartidagi shartli taqsimotlari o‘rganilgan. A.M.Yaglom subkritik va kritik jarayonlar shartli taqsimotlarining asimptotikasini aniqlagan va kritik holda mos ravishda normallangan tarmoqlanuvchi jarayon shartli taqsimoti bitta zarracha avlodlari soni chekli uchinchi momentga ega bo‘lganda ko‘rsatkichli taqsimotga yaqinlashishini ko‘rsatgan. T.Xarris tarmoqlanuvchi jarayonning uzoq kelajakda so‘nmaslik shartidagi taqsimoti limiti $1-e^{-x}-xe^{-x}$ ko‘rinishdagi taqsimot bo‘lishini isbotlagan. V.M.Zolotarev uzluksiz vaqtli tarmoqlanuvchi Markov jarayonlarini jarayon so‘nmaganlik shartidagi taqsimotini, bitta zarracha avlodlari soni hosil qiluvchi funksiyasi ma’lum ko‘rinishga ega (bu holda zarracha avlodlari soni dispersiyaga ega bo‘lmasligi ham mumkin) bo‘lgan holda asimptotikasini topgan. H.Kesten, P.Ney, F.Spitzerlar kritik tarmoqlanuvchi jarayonlar uchun Yaglom teoremasi o‘rinli bo‘lishi uchun bitta zarracha avlodlari soni dispersiyasi chekli bo‘lishi yetarli ekanligini ko‘rsatganlar.

V.Feller katta sondagi zarrachalardan boshlanuvchi tarmoqlanuvchi kritik jarayonlarni taqsimoti (shartsiz) Feller jarayoni taqsimotiga kuchsiz yaqinlashishini, T.Lindvall esa V.Feller natijasini Skoroxod fazosida ham o‘rinli ekanligini isbotlagan. Dj.Lamperti va P.Neylar katta sondagi zarrachalardan boshlanuvchi kritik jarayonlarning jarayon so‘nmaganlik shartidagi chekli o‘lchamli taqsimotlari tayin diffuzion jarayonning mos taqsimotlariga yaqinlashishini ko‘rsatgan. E.Seneta va A.Peykslar kritik tarmoqlanuvchi jarayonlarni jarayonni so‘nish vaqti qaralayotgan vaqtdan so‘ng biror aniq vaqtda ro‘y berishi shartida o‘rganganlar.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universiteti Matematika fakulteti “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” kafedrasining “Statistik baholash nazariyasi va gipotezalarni tekshirish” (2016-2021 yillar) mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo‘nalishi doirasida va V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti ilmiy Kengashida tasdiqlangan “Stoxastik taxlil” laborotoriyasining rejalashtirilgan mavzusiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kritik tarmoqlanuvchi jarayonlar taqsimotini va shartli taqsimotini sust yaqinlashishini taminlaydigan limit teoremalar isbotlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bitta zarrachaning bevosita avlodlar soni dispersiyasi mavjud bo‘lmagan holda kritik tarmoqlanuvchi jarayonning $n+m$ momentda so‘nmaganlik shartidagi taqsimoti asimptotikasini n va m parametrlarga turli xil shartlar qo‘yilganda aniqlash;

bitta zarrachaning bevosita avlodlar soni chekli dispersiyaga ega bo‘lgan kritik tarmoqlanuvchi jarayonlar uchun uning traektoriyalariga ma’lum shartlar qo‘yilgandagi taqsimotlari uchun limit teoremalar isbotlash;

katta sondagi zarrachalardan boshlanuvchi kritik tarmoqlanuvchi jarayon taqsimot funksiyasi asimptotikasini zarracha avlodlar soni dispersiyasi mavjud bo‘lmagan holda topish;

bitta zarrachaning bevosita avlodlar soni cheksiz dispersiyaga ega bo‘lgan kritik tarmoqlanuvchi jarayonni so‘nish momentiga qo‘yilgan shartdagi shartli taqsimoti uchun limit teoremalar isbotlash;

Tadqiqot ob’ekti kritik tarmoqlanuvchi jarayonlar va ularning taqsimotlari.

Tadqiqot predmeti. Tarmoqlanuvchi jarayon hosil qiluvchi funksiyalari, tarmoqlanuvchi jarayonlar sonli xarakteristikalari, tarmoqlanuvchi jarayonlarning davom etish ehtimolligi, tarmoqlanuvchi jarayonlarning bir o‘lchamli taqsimotlari va chekli o‘lchamli taqsimotlari, shartli taqsimotlari.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ehtimolliklar nazariyasi usullaridan va hosil qiluvchi funksiyalar analitik usulidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

zarrachalar bevosita avlodlar soni dispersiyasi mavjud bo‘lmagan hamda hosil qiluvchi funksiyasi maxsus ko‘rinishda bo‘lishi talab qilingan kritik Galton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayonining berilgan momentda so‘nmaganlik shartidagi taqsimotining asimptotikasi topilgan;

bitta zarrachaning bevosita avlodlari sonining dispersiyasi cheksiz bo‘lgan holda ko‘p sonli zarrachalardan boshlanadigan kritik Galton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayonlar uchun chekli o‘lchovli taqsimotlarning asimptotikasi aniqlangan;

bitta zarrachaning bevosita avlodlari soni chekli dispersiyaga ega bo‘lmagan holda kritik Galton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayonlarining so‘nish vaqti ma’lum vaqt oralig‘ida ro‘y berish shartidagi shartli taqsimotlari uchun limit teoremalar isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ma’lum muhitdagi populyatsiya rivojlanishi yoki kasalliklarni tarqalishining matematik modellarini tarmoqlanuvchi jarayonlar orqali ifodalashni taklif etilganligi va bu tarmoqlanuvchi jarayonlar asimptotikasini aniqlash usullarini bayon qilinganligidan iborat;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ehtimolliklar nazariyasi, tasodifiy jarayonlar nazariyasi, matematik tahlil hamda matematik mulohazalarning qat’iyligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tarmoqlanuvchi jarayonlar nazariyasini rivojlantirishda qo‘llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, zarrachalarning populyatsiyalar evolyutsiyasi haqida xulosalar chiqarish, demografiya, biologiya, shuningdek, meditsinaning bazi masalalarini yechish imkonini berganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kritik tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonlar uchun olingan natijalar asosida:

zarrachalar bevosita avlodlar soni dispersiyasi mavjud bo‘lmagan tarmoqlanuvchi jarayonining berilgan momentda so‘nmaganlik shartidagi taqsimotining asimptotikasidan OT-F4-69 raqamli “Garmonik tahlil, darajali geometriya va uning matematik fizika masalalariga tadbiqlari” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihada tez tebranuvchan funksiyalardan olingan integrallarning asimptotik xarakterini tekshirishda foydalanilgan (Samarqand Davlat universitetining 2023 yil 3 iyundagi №10-2896-sonli ma’lumotnomasi).

Ilmiy natijaning qo‘llanilishi singulyar integrallarni tekis baholash imkonini bergan;

kritik Gal’ton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayonlarining taqsimotlariga qo‘shimcha shartlar qo‘yilganda olingan asimptotik munosabatlardan OT-F4-40 raqamli “O‘lchovli funksiyalar sinfida indekslangan integral empirik protsesslarning asimptotik xossalarini tatqiq qilish” mavzusidagi fundamental loyihada o‘lchovli funksiyalar sinfida indekslangan integral emperik protsesslarning asimptotik xossalarini isbotlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 27 iyuldagi №04/11-4514-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi indekslangan integral emperik protsesslarning asimptotik taqsimotlarini topish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan, 6 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari (PhD) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan 1 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jornallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 99 betni tashkil etgan.

DISSERTA TSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Gal’ton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayonlariga doir asosiy ta’rif va natijalar”** deb nomlangan birinchi bobida Gal’ton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayon ta’rifi va uning additivlik xossasi, hosil qiluvchi funksiya ta’rifi va uning asosiy xossalari, Gal’ton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayonning hosil qiluvchi funksiyasi, Gal’ton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayonning o‘rta qiymati va dispersiyasi uchun formulalar, jarayonning so‘nish ehtimolligi va kritik Galton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayonlari uchun asosiy limit teoremalar keltirilgan.

Birinchi bobning birinchi paragrafida Gal’ton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayon ta’rifi va uning additivlik xossasi, hosil qiluvchi funksiya ta’rifi va uning asosiy xossalari, Gal’ton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayonning hosil qiluvchi funksiyasi, jarayonning o‘rta qiymati va dispersiyasi uchun formulalar hamda jarayonning so‘nish ehtimolligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafida kritik Gal’ton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayonlarining so‘nish ehtimolligi va shartli taqsimotlari uchun asosiy limit teoremalar, jumladan, Kolmogorov, Yaglom va Slack teoremalari keltirilgan.

Birinchi bobning uchinchi paragrafida immigratsiyali tarmoqlanuvchi jarayon ta’rifi, ba’zi muxim xossalari, momentlari va bunday jarayonlar uchun ba’zi limit teoremalar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Kritik Gal’ton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayonlarining asimptotikasi**” deb nomlangan ikkinchi bobi Gal’ton-Vatson tarmoqlanuvchi Z_n jarayonning $Z_{n+m} > 0$ shartdagi taqsimotini asimptotikasi n va m parametrlarga qo‘yilgan turli xil shartlarda o‘rganilgan. Bunda zarrachalar bevosita avlodlar soni dispersiyasi mavjud bo‘lmagan hol qaralgan bo‘lib, $f(s)$ hosil qiluvchi funksiya maxsus ko‘rinishda bo‘lishi talab qilingan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida Gal’ton-Vatson tarmoqlanuvchi Z_n jarayonning $Z_{n+m} > 0$ shartdagi taqsimotini asimptotikasi n va m parametrlarga qo‘yilgan turli xil shartlarda o‘rganilgan.

Faraz qilaylik, $Z_n,\ n \geq 0$ quyidagi

$$Z_0 = 1,\ \ Z_n = \sum_{j=1}^{Z_{n-1}} \xi_{n,j},\ \ n \in \mathbb{N} \tag{1}$$

rekurent munosabat bilan aniqlangan Gal’ton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayoni bo‘lsin, bu yerda $\xi_{i,j}$ tasodify miqdorlar bog‘liqsiz, manfiymas butun qiymatlar qabul qilib, bir xil $f(s)$ hosil qiluvchi funksiyaga va $\{p_k,\ k \geq 0\}$ $(p_0 + p_1 < 1,\ p_0 > 0)$ taqsimotga ega tasodifiy miqdorlar ketma-ketligidan iborat.

Hosil qiluvchi $f(s)$ funksiyaning n-momentdagi iteratsiyalarini $f_n(s)$ bilan belgilaymiz.

Quyidagi shartni kiritamiz:

(A): $f(s)$ hosil qiluvchi funksiya

$$f(s) = s + (1-s)^{1+\alpha} L(1-s),\ \ 0 \leq s \leq 1 \tag{2}$$

ko‘rinishga ega, bu yerda $\alpha \in (0,1]$-tayin son, $L(x)$-nolda sekin o‘zgaruvchi funksiya.

1-teorema. Faraz qilaylik m fiksirlangan butun musbat son yoki $k\to\infty$ da $m=o(k)$, $m\to\infty$, $f(s)$ uchun $f'(1)=1$ va **(A)** shart o‘rinli bo‘lsin. U holda $k\to\infty$ da

$$E\left(e^{-\lambda(1-f_k(0))Z_k}\Big/ Z_{k+m}>0\right)\to 1-\lambda\left(1+\lambda^{\alpha}\right)^{-\frac{1}{\alpha}},\ k\to\infty.$$

2-teorema. Faraz qilaylik $f(s)$ uchun $f'(1)=1$ va **(A)** shart o‘rinli bo‘lsin. Bu holda

$$\lim_{k\to\infty}\lim_{m\to\infty}E\left(e^{-\lambda(1-f_k(0))Z_k}\Big/ Z_{k+m}>0\right)=\left(1+\lambda^{\alpha}\right)^{-\frac{1+\alpha}{\alpha}}.$$

Ushbu teoremaning tasdig‘i Pakes tomonidan immigratsiyali jarayonlar uchun isbotlangan teorema natijasi sifatida olingan. Bizni 2-teoremani isbotlashdagi usulimiz Pakes usulidan farq qiladi.

Agar 2-teorema shartlari bajarilib, **(A)** shartda $\alpha=1$ bo‘lsa, $\left(1-f_k(0)\right)Z_k$ tasodifiy miqdorning $Z_{n+m}>0$ shartidagi shartli taqsimoti $m\to\infty, n\to\infty$ da Laplas almashtirishi $(1+\lambda)^{-2}$ bo‘lgan $1-e^{-x}-xe^{-x}$ taqsimotga kuchsiz yaqinlashadi. Bu natijani T.Harris isbotlagan.

3-teorema. Agar $f(s)$ hosil qiluvchi funksiya uchun $f'(1)=1$ va **(A)** shart o‘rinli va $m\to\infty$ da $k=o(m), k\to\infty$ bo‘lsa

$$E\left(e^{-\lambda(1-f_k(0))Z_k}\Big/ Z_{k+m}>0\right)\to\left(1+\lambda^{\alpha}\right)^{-\frac{1+\alpha}{\alpha}},\ m\to\infty.$$

4-teorema. Faraz qilaylik $f(s)$ uchun $f'(1)=1$ va **(A)** shart o‘rinli bo‘lsin, $t\in(0,1)$ fiksirlangan biror son bo‘lib, $k=[nt]$, $m=\left[(1-t)n\right]$ deylik, bunda $[a]$ belgi a sonining butun qismini bildiradi. Bu holda

$$E\left(e^{-\lambda(1-f_n(0))Z_{[nt]}}\Big/ Z_n>0\right)\to\varphi_\alpha(t,\lambda),\ n\to\infty,$$

by yerda

$$\varphi_\alpha(t,\lambda)=\frac{1}{t^{\frac{1}{\alpha}}}\left\{1-\lambda t^{\frac{1}{\alpha}}\left[1+t\lambda^{\alpha}\right]^{-\frac{1}{\alpha}}\right\}-\frac{1}{t^{\frac{1}{\alpha}}}\left\{1-\lambda t^{\frac{1}{\alpha}}\left(1+\frac{1}{\lambda(1-t)^{\frac{1}{\alpha}}}\right)\left[1+t\lambda^{\alpha}\left(1+\frac{1}{\lambda(1-t)^{\frac{1}{\alpha}}}\right)^{\alpha}\right]^{-\frac{1}{\alpha}}\right\}$$

(3)

Natija. $f''(1)<\infty$ bo‘lsin. Bu holda **(A)** shart $\alpha=1$ bilan bajarilib 4-teoremaning tasdig‘idagi $\varphi_1(t,\lambda)$ hosil qiluvchi funksiya

$$\varphi_1(t,\lambda)=\frac{1}{t}\left[\frac{1}{1+\lambda t}-\frac{1-t}{1+\lambda t(1-t)}\right]$$

ko‘rinishga ega. $\varphi_1(t,\lambda)$ Laplas almashtirishi $t^{-2}e^{-\frac{y}{t}}\left(1-e^{-\frac{y}{1-t}}\right)$ zichlik funksiya va

$$G_t(y)=t^{-1}\left(1-e^{-\frac{y}{t}}\right)-t^{-1}(1-t)\left(1-e^{-\frac{y}{t(1-t)}}\right),\ y\geq 0$$

ehtimollik taqsimotiga mos keladi. Bu natija Lamperti, Ney [8]ning 2-teoremasi natijasi bilan mos keladi.

5-teorema. Faraz qiliylik $f(s)$ hosil qiluvchi funksiya uchun $f'(1)=1$ va **(A)** shart o‘rinli bo‘lsin. U holda har qanday $t\in[0,1]$ va ixtiyoriy $\lambda\geq 0$ uchun

$$\psi_t(\lambda)=\lim_{n\to\infty}E\left(e^{-\lambda(1-f_n(0))Z_n}\Big/Z_{[nt]}>0\right)=1-\lambda t^{\frac{1}{\alpha}}\left(1+\lambda^{\alpha}\right)^{-\frac{1}{\alpha}}$$

munosabat o‘rinli.

Ravshanki, $\psi_t(\lambda)$ funksiyani quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin

$$\psi_t(\lambda)=1-t^{\frac{1}{\alpha}}+t^{\frac{1}{\alpha}}\left(1-\lambda\left(1+\lambda^{\alpha}\right)^{-\frac{1}{\alpha}}\right).$$

Bundan $\psi_t(\lambda)$ funksiya $\xi\eta$ tasodifiy miqdorning Laplas almashtirishi ekanligi kelib chiqadi, bu yerda ξ va η bog‘liqsiz, hamda ξ miqdor

$$P(\xi=0)=1-t^{\frac{1}{\alpha}},\ P(\xi=1)=t^{\frac{1}{\alpha}}$$

taqsimotga, η miqdor esa $1-\lambda\left(1+\lambda^{\alpha}\right)^{-\frac{1}{\alpha}}$ ga teng hosil qiluvchi funksiyaga ega. Ushbu talqinda 4-teoremada olingan natijaning ma’nosi oydinlashadi. Haqiqatdan ham, agar qaralayotgan tarmoqlanuvchi jarayon $[nt]$ momentda so‘nmagan bo‘lsa $\left(Z_{[nt]}>0\right)$ u n-momentda yoki so‘nadi $(Z_n=0)$ yoki davom etayotgan bo‘ladi $(Z_n>0)$. $Z_n=0$ tasodifiy hodisaning $Z_{[nt]}>0$ shartdagi taqsimotining $n\to\infty$ dagi limiti $1-t^{\frac{1}{\alpha}}$ soniga teng.

Endi η butun musbat qiymatlar qabul qiluvchi va $\{\xi_{i,j},\ i,j\in\mathbb{N}\}$ tasodifiy miqdorlar ketma-ketligidan bog‘liq bo‘lmagan tasodifiy miqdor bo‘lsin. $h(s)$ orqali η ning hosil qiluvchi funksiyasini belgilaymiz.

$W_k,\ k\in\mathbb{N}$- boshlang‘ich momentda tasodifiy η sondagi zarrachalardan boshlanuvchi

$$W_0=\eta,\ W_n=\sum_{j=1}^{W_{n-1}}\xi_{n,j},\ n\in\mathbb{N}$$

rekurent munosabat bilan aniqlangan kritik Gal’ton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayoni bo‘lsin. Ushbu paragrafda $E\eta<\infty$ shart bajarilganda $W_k,\ k\in\mathbb{N}_0$ tasodifiy jarayonlar uchun 1-3 teoremalar analogi keltirilgan.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida ko‘p sondagi zarrachalardan boshlanadigan va bitta zarrachaning avlodlari soni chekli dispersiyaga ega bo‘lmasligi mumkin bo‘lgan holda mos ravishda normallashtirilgan $Z_{[nt]},\ t\in[0,1]$ Gal’ton-Vatson kritik tarmoqlanuvchi tasodifiy jarayonining chekli o‘lchovli taqsimotlarining asimptotikasi o‘rganilgan.

6-teorema. Faraz qilaylik $f'(1)=1$, **(A)** shart bajarilsin, bu holda ixtiyoriy $k\in\mathbb{N}$ va $0\le t_1<t_2<...<t_k\le 1$, $\lambda_i\ge 0$, $i=1,2,...,k$ uchun

$$\left(1-f_n(0)\right)\left(Z_{[nt_1]},Z_{[nt_2]},...,Z_{[nt_k]}\right)$$

vektorning Laplas almashtirishi $n\to\infty$ da

$$f_k\left(x,t_1,...,t_k,\lambda_1,...,\lambda_k\right),\ k=2,...$$

Laplas almashtirishiga yaqinlashadi. $f_k\left(x,t_1,...,t_k,\lambda_1,...,\lambda_k\right),\ k=2,...$ funksiyalar quyidagi munosabatlarni qanoatlantiradi:

$$f_k\left(x,t_1,...,t_k,\lambda_1,...,\lambda_k\right)=f_{k-1}\left(x,t_1,...,t_{k-1},\lambda_1,...,\lambda_{k-1}+\lambda_k\left(1+\lambda_k^{\alpha}\left(t_k-t_{k-1}\right)\right)^{-\frac{1}{\alpha}}\right),$$

$$k=2,3,...$$

bunda $f_1(x,t,\lambda)=e^{-\frac{x\lambda}{\left(1+t\lambda^{\alpha}\right)^{\frac{1}{\alpha}}}}-e^{\frac{x}{t^{1/\alpha}}}$.

Bu teoremadan quyidagi natija kelib chiqadi.

Natija. Faraz qilaylik 6-teorema shartlari bajarilsin. U holda har qanday $k=2,3,...$ va $t_i\in[0,1]$, $i=\overline{1,k}$, $0\le t_1<t_2<...<t_k\le 1$ uchun $\left(1-f_n(0)\right)\left(Z_{[nt_1]},...,Z_{[nt_k]}\right)$ vektorning taqsimoti $n\to\infty$ da Laplas almashtirishi 6-

teoremada aniqlangan $f_k\left(x,t_1,...,t_k,\lambda_1,...,\lambda_k\right)$ Laplas almashtirish funksiyasiga mos vektor taqsimotiga kuchsiz yaqinlashadi.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafida bitta zarrachaning bevosita avlodlar soni chekli dispersiyaga ega bo‘lgan holda kritik Gal’ton-Vatson tarmoqlanuvchi $Z_k,\ k\geq 0$ jarayonning uning tugash momentiga qo‘yilgan shartdagi shartli taqsimoti asimptotikasi m va k parametrlarga qo‘yilgan turli shartlarda o‘rganilgan va ular uchun limit teoremalar isbotlangan.

Gal’ton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayonining tugash momentini ifodalovchi $T=\min\left(k:\ Z_k=0\right)$ tasodifiy miqdorni kiritamiz. Ravshanki, kritik holda

$$\lim_{n\to\infty}P\left(T>n\right)=\lim_{n\to\infty}P\left(Z_n>0\right)=0 \text{ va demak, } P\left(T<\infty\right)=1.$$

7-teorema. $f'\left(1\right)=1,\ \sigma^2=f''\left(1\right)<\infty$ bo‘lsin. Bu holda har qanday tayinlangan $m\in\mathbb{N}$ va barcha $j\in\mathbb{N}$ uchun

$$u_j\left(k\right)=\lim_{n\to\infty}P\left(Z_n=j\big/T=n+k\right)=\mu\left(j\right)\left[f_k^j\left(0\right)-f_{k-1}^j\left(0\right)\right], \tag{4}$$

bu yerda

$$\mu\left(j\right)=\lim_{n\to\infty}\frac{\sigma^2n^2}{2}P_n\left(1,j\right),\ \ j\in\mathbb{N},$$

$$P_n\left(i,j\right)=P\left(Z_n=j\big/Z_0=i\right),$$

$$U_k\left(s\right)=\lim_{n\to\infty}\sum_{j=1}^{\infty}s^jP\left(Z_n=j\big/T=n+k\right)=G\left(sf_k(0)\right)-G\left(sf_{k-1}(0)\right), \tag{5}$$

bu yerda $G\left(s\right)=\sum\limits_{j=1}^{\infty}\mu\left(j\right)s^j$.

8-teorema. $f'\left(1\right)=1,\ \sigma^2=f''\left(1\right)<\infty$ bo‘lsin. U holda har qanday tayinlangan $m\in\mathbb{N}$ va barcha $j\in\mathbb{N}$ uchun

$$u_j=\lim_{n\to\infty}P\left(Z_n=j\big/n<T\leq n+m\right)=\frac{1}{m}\mu\left(j\right)f_m^j\left(0\right), \tag{6}$$

$$U\left(s\right)=\lim_{n\to\infty}\sum_{j=1}^{\infty}s^jP\left(Z_n=j\big/n<T\leq n+m\right)=\frac{1}{m}G\left(sf_m(0)\right).$$

9-teorema. $f'(1)=1,\ \sigma^2 = f''(1)<\infty$ bo‘lsin. U holda har qanday $\lambda \ge 0$ uchun quyidagi munosabat o‘rinli:

$$\lim_{n\to\infty} E\left(e^{-\lambda(1-f_n(0))Z_{[nt]}} \Big/ Z_{[nt]}>0, Z_n=0 \right) = \frac{1}{1+\lambda t(1-t)}.$$

Dissertatsiyaning **uchinchi bobi** “**Kritik Gal’ton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayonlar uchun shartli limit teoremalar**” deb atalib, bir zarrachaning bevosita avlodlari soni cheksiz dispersiyaga ega bo‘lgan holda $Z_k,\ k\ge 0$ kritik Gal’ton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayonining tugash momentiga qo‘yilgan shartdagi taqsimotlari uchun limit teoremalar isbotlangan.

Uchinchi bobning birinchi paragrafida zarrachaning avlodlari soni hosil qiluvchi funksiyasi (**A)** shartni qanoatlantirganda ikkinchi bobning uchinchi paragrafidagi 7,8- teoremalar analogi hamda 12-teorema keltirilgan.

10-teorema. Faraz qilaylik **(A)** shart o‘rinli va $f'(1)=1$ bo‘lsin. U holda har qanday tayin $k\in\mathbb{N}$ va hamma $j\in\mathbb{N}$ lar uchun $n\to\infty$ da

$$P\left(Z_n = j \Big/ T = n+k \right) \to \mu(j)\left[f_k^j(0) - f_{k-1}^j(0) \right],$$

munosabat o‘rinli bo‘ladi, bunda $\mu(j),\ j\ge 1$ miqdorlar

$$\lim_{n\to\infty} L^{\frac{1}{\alpha}}\left(1-f_n(0)\right)(\alpha n)^{1+\frac{1}{\alpha}} P_n(i,j) = i\mu(j)$$

munosabatdan aniqlanadi, bu yerda $P_n(i,j) = P\left(Z_n = j \Big/ Z_0 = i \right)$.

Natija. Faraz qilaylik **(A)** shart o‘rinli va $f'(1)=1$ bo‘lsin. U holda har qanday tayin $k\in\mathbb{N}$ uchun $n\to\infty$ da

$$\Phi_{k,n}(s) = \sum_{j=1}^{\infty} s^j P\left(Z_n = j \Big/ T = n+k \right) \to U\left(sf_k(0)\right) - U\left(sf_{k-1}(0)\right),\ 0\le s\le 1,$$

munosabat o‘rinli bo‘ladi, bu yerdagi $U(s)$ funksiya 10-teoremadagi $\mu(j),\ j\ge 1$ o‘lchovning hosil qiluvchi funksiyasi:

$$U(s) = \sum_{j=1}^{\infty} \mu(j) s^j .$$

11-teorema. Faraz qilaylik **(A)** shart o‘rinli va $f'(1)=1$ bo‘lsin. Bu holda barcha $j\in\mathbb{N}$ va har qanday tayin $m\in\mathbb{N}$ son uchun $n\to\infty$ da

$$P\left(Z_n = j \big/ n < T \le n+m\right) \to \frac{1}{m}\mu(j)\, f_m^{\,j}(0),$$

munosabat o‘rinli bo‘ladi, bu yerdagi $\mu(j),\ j \ge 1$ miqdorlar 10-teoremada aniqlangan.

Natija. Faraz qilaylik **(A)** shart o‘rinli va $f'(1) = 1$ bo‘lsin. U holda har qanday tayin $m \in \mathbb{N}$ soni uchun $n \to \infty$ da

$$\sum_{j=1}^{\infty} s^j P\left(Z_n = j \big/ n < T \le n+m\right) \to \frac{1}{m} U\left(s f_m(0)\right),\ 0 \le s < 1,$$

munosabat o‘rinli bo‘ladi, bu yerdagi $U(s)$ funksiya 10-teoremadagi $\mu(j),\ j \ge 1$ o‘lchovning hosil qiluvchi funksiyasi.

12-teorema. Faraz qilaylik **(A)** shart o‘rinli va $f'(1) = 1$ bo‘lsin. Bu holda har qanday $\lambda \ge 0$ uchun

$$\lim_{n\to\infty} E\left(e^{-\lambda(1-f_n(0))Z_{[nt]}} \big/ Z_{[nt]} > 0, Z_n = 0\right) = \frac{1}{1-t^{\frac{1}{\alpha}}}\left\{1 - \lambda t^{\frac{1}{\alpha}}\left(1 + \frac{1}{\lambda(1-t)^{\frac{1}{\alpha}}}\right) \times \right.$$

$$\left. \times \left[1 + t\lambda^{\alpha}\left(1 + \frac{1}{\lambda(1-t)^{\frac{1}{\alpha}}}\right)^{\alpha}\right]^{-\frac{1}{\alpha}}\right\}.$$

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafida 10-12-teoremalar isbotida kerak bo‘ladigan yordamchi ma’lumotlar keltirilgan**, uchunchi paragraf** bobning asosiy natijalarini isbotlashga bag‘ishlangan.

Uchinchi bobning to‘rtinchi paragrafida immigratsiyali deyarli kritik tarmoqlanuvchi jarayonni deterministik jarayonga yaqinlashishi haqidagi teorema isbotlangan.

Har bir $n \in \mathbb{N}$ da $\left\{\xi_{i,j}^{(n)},\ i, j \in \mathbb{N}\right\}$ va $\left\{\varepsilon_i^{(n)}, i \in \mathbb{N}\right\}$ nomanfiy butun son qiymatlarni qabul qiluvchi bog‘liqsiz bir xil taqsimlangan tasodifiy miqdorlarning ikkita o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan oilasi bo‘lsin. Immigratsiyali tarmoqlanuvchi $\left\{X_k^{(n)}, k \ge 0\right\}$, $n \in \mathbb{N}$ jarayonlarning ketma-ketligini quyidagi rekurrent munosabatlar bilan aniqlaymiz:

$$X_0^{(n)} = 0,\ X_k^{(n)} = \sum_{j=1}^{X_{k-1}^{(n)}} \xi_{k,j}^{(n)} + \varepsilon_k^{(n)},\ k, n \in \mathbb{N}. \qquad (9)$$

$T>0$-biror tayinlangan son bo‘lsin. $D_{[0,\mathrm{T}]}$ orqali $[0,T]$ oraliqda aniqlangan ikkinchi turdagi uzilishlarsiz va o‘ng tomondan uzluksiz haqiqiy qiymatli funksiyalarning Skoroxod fazosini belgilaymiz.

$X_n(t),\ t\geq 0$ tasodifiy jarayonni quyidagicha

$$X_n(t)=X^{(n)}_{[\mathrm{nt}]},\ t\in[0,T] \tag{10}$$

aniqlaymiz, bu yerda $[\mathrm{a}]$ - a sonining butun qismini bildiradi. Ravshanki, $\{X_n(t),\ t\in[0,T]\},\ \ n\in\mathbb{N}$ jarayonlarning traektoriyalari $D_{[0,T]}$ fazoga tegishli. Faraz qilaylik $m_n=E\xi^{(n)}_{1,1}<\infty,\ \ n\in\mathbb{N}$ bo‘lsin. Agar $n\to 1$ da $m_n\to 1$ bo‘lsa, $\{X_n(t),\ t\in[0,T]\},\ n\in\mathbb{N}$ jarayonlar ketma-ketligi deyarli kritik imigratsiyali tarmoqlanuvchi jarayonlar deb ataladi. Ushbu paragrafda mos ravishda normallangan $\{X_n(t),\ t\in[0,T]\},\ \ n\in\mathbb{N}$ tasodifiy jarayonlar ketma-ketligini deterministik (tasodifiy bo‘lmagan) jarayonga yaqinlashish shartlari aniqlangan.

Xulosa

Dissertatsiya ishi kritik Gal’ton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayonlarda bitta zarrachaning avlodlari soni dispersiyasi mavjud bo‘lgan va mavjud bo‘lmagan hollarda shartli taqsimotlar asimptotik holatini aniqlashga hamda shu jarayonlar uchun limit teoremalar isbotlashga bag‘ishlangan.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. Bitta zarrachaning bevosita avlodlar soni dispersiyasi mavjud bo‘lmagan holda kritik Gal’ton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayonning $n+m$ momentda so‘nmaganlik shartidagi taqsimoti asimptotikasi n va m parametrlarga turli xil shartlar qo‘yilganda aniqlangan.

2. Bitta zarrachaning bevosita avlodlar soni chekli dispersiyaga ega bo‘lgan kritik tarmoqlanuvchi jarayonlar uchun uning traektoriyalariga ma’lum shartlar qo‘yilgandagi taqsimotlari uchun limit teoremalar isbotlangan;

3. Bitta zarrachaning bevosita avlodlari soni cheksiz dispersiyaga ega bo‘lgan holda katta sondagi zarrachalardan boshlanuvchi kritik Gal’ton-Vatson tarmoqlanuvchi jarayonlarning chekli o‘lchovli taqsimotlarini asimptotikasi haqidagi teorema isbotlangan.

4. Bitta zarrachaning bevosita avlodlar soni cheksiz dispersiyaga ega bo‘lgan kritik tarmoqlanuvchi jarayonni so‘nish momentiga qo‘yilgan turli shartlardagi taqsimoti uchun limit teoremalar isbotlangan.

5. Immigratsiyali deyarli kritik tarmoqlanuvchi jarayonni vaqt o‘tishi bilan tasodifiylik xususiyatini yo‘qotishi uchun yetarli bo‘lgan shartlarni o‘z ichiga olgan teorema isbotlangan.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ МАТЕМАТИКИ ИМЕНИ В.И.РОМАНОВСКОГО

ИНСТИТУТ МАТЕМАТИКИ,
НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

ТОШКУЛОВ ХАМЗА АБДУЖАББОРОВИЧ

АСИМПТОТИКА УСЛОВНЫХ РАСПРЕДЕЛЕНИЙ КРИТИЧЕСКИХ ВЕТВЯЩИХСЯ ПРОЦЕССОВ ГАЛЬТОНА-ВАТСОНА

01.01.05 – Теория вероятностей и математическая статистика
(физико-математические науки)

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по
ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2024 г.

Тема диссертации доктора философии (Doctorof Philosophy) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, Науки и Инноваций Республики Узбекистан за B2023.1.PhD/FM841.

Диссертация выполнена в институте математики и Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу http://kengash.mathinst.uz/ и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» по адресу www.ziyonet.uz

Научный руководитель:	**Хусанбаев Якубджан Мухамаджанович** доктор физико-математических наук, доцент
Официальные оппоненты:	**Мирахмедов Шерзод Адылович** доктор физико-математических наук, профессор
	Азимов Жахонгир Бахромович кондидат физико-математических наук, доцент
Ведущая организация:	**Наманганский инженерно-строительный институт**

Защита диссертации состоится « 25 » июля 2024 года в 17:30 часов на заседании Научного совета Dsc.02/30.12.2019.FM.86.01 при Институте математики имени В.И.Романовского (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазрский район, ул. Университетская, 9. Тел.: (+99871)207-91-40, e-mail: kengash@mathinst.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института математики имени В.И.Романовского (зарегистрирована за № 187). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазрский район, ул. Университетская, 9.Тел.: (+99871) 207-91-40).

Автореферат диссертации разослан « 11 » июля 2024 года.
(протокол рассылки № 2 от « 11 » июля 2024 года).

У.А. Розиков
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., академик

Ж.К. Адашев
Научный секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., старший научный сотрудник

Ш.К.Форманов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., академик

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Теория ветвящихся случайных процессов представляет собой математическую модель задач, связанных с эволюцией популяций частиц и важна для решения сложных практических задач, возникающих в медицине, химии, физике, биологии, системах массового обслуживания и многих других областях науки. Поэтому исследование случайных ветвящихся процессов остается одной из актуальных и важных задач теории современных случайных процессов.

В последнее время для определения свойств ветвящихся процессов изучаются их распределения, а также условные распределения. Однако нахождение явных выражений для распределений является трудной задачей. Поэтому для определения асимптотических формул указанных распределений необходимо изучить асимптотику условных распределений ветвящихся процессов; нахождение асимптотики функции распределения ветвящегося процесса, начиная с большого числа частиц; доказательство предельных теорем для ветвящегося процесса с бесконечным числом прямых поколений одной частицы-один из центральных и актуальных вопросов теории ветвящихся процессов.

В нашей стране особое внимание уделяется актуальным направлениям теории вероятностей, математической статистике и теории случайных процессов как фундаментальное и практическое применение математики, имеющих большое практическое значение, в частности, к изучению асимптотики распределений и условных распределений случайных ветвящихся процессов. В результате были достигнуты существенные результаты в исследовании асимптотики распределений ветвящихся процессов. Проведение научных исследований на основе международных стандартов по приоритетным направлениям «Теория вероятностей и математическая статистика» и «Функциональный анализ и актуарная математика» является одной из основных задач и направлений деятельности[1]. В связи с этим актуально и важно развитие научных исследований в области теории ветвящихся процессов.

Данная диссертация в определенной мере служит в обеспечении выполнения задач, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № ПФ-4947 «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», в Постановлении Президента Республики Узбекистан № PQ-2789 от 17 февраля 2017 года «Деятельность АН СССР, научный «О мерах по дальнейшему совершенствованию организации, управления и финансирования научных исследований», в Постановлении Президента Республики Узбекистан ПQ-2909 от 20 апреля 2017 г. «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» и в Постановлении Президента Республикии[1]. Узбекистан № PQ-4387 от 9 июля 2019 г.

[1]Постановление Президента Республики Узбекистан, от 09.07.2019 г. № ПП-4387 «О мерах государственной поддержки дальнейшего развития математического образования и науки, а также коренного совершенствования деятельности института Математики имени В.И. Романовского Академии наук Республики Узбекистан»

«О государственной поддержке дальнейшего развития математического образования и науки, а также мер по коренному совершенствованию деятельности Института математики имени В.И. Романовского Академии наук Республики Узбекистан» и других административно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления IV «Математика, механика и информатика» развития науки и технологий Республики.

